

Hamkorlik-rivojlanish omili

2020 - yil 5 - dekabr kuni "Suv xo'jaligini tashkil etish va boshqarish" fakulteti B-o'quv binosi "Turon bank" o'quv xonasida fakultet dekani R.Xakimov raisligida fakultet professor-o'qituvchilari hamda iqtidorli talabalari uchun Turon bank ATB "Bank risklarini boshqaruv departamenti" direktori o'rinbosari Eshniyozov Otabek Baxodirovich ishtirokida O'zbekistonda bank tizimida olib borilayotgan islohotlar, Bank risklari, Bank risklarining turlari, istiqbolli loyihalar samaradorligi hamda Bank tizimida faoliyat olib borayotgan oliy ma'lumotli mutaxassislariga qo'yiladigan talablar xususida ma'ruza bo'lib o'tdi. Uchrashuvda professor-o'qituvchilar hamda talabalar tomonidan Bank tizimi bo'yicha qiziqtirgan savollariga javoblar olindi. Tadbir qizg'in bahs-munozaralar asosida o'tdi.



TIQXMMI matbuot xizmati